

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2023 № 2 (21)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan**

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE

INTERNATIONAL JOURNAL

2023 № 2 (21)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent-2023

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” International journal

Tahrir kengashi

Abdildina, R.J. - Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor

Mamedzade, I.R. - Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor

Skarantino, L.M. - Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya)

Smirnov, A.V. - Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya FA prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya)

Seytaxmedova N.L. Qozog'iston FA muxbir a'zosi, f.f.d., professor

Tsuy Veyxan - Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy)

Chumakov, A.N. - Rossiya FA Falsafa institute professori, f.f.d., (Rossiya)

Muassislar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Inom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Expert lawyers MUK Elc.uz

Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston ma'buot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.

Bosh muharrir:

Shermuhamedova, N.A. - f.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinh osari:

Aslanova R. - f.f.d., professor (Azarbayjon)

Mas'ul muharrir:

Muhamedov a ZM. - f.f.d., prof (O'zbekiston)

Tahrir hay'ati:

Allahyarova, T. - f.f.d., professor (Azarbayjon)

Andirjanova, G.A. - s.f.d., professor (Qozog'iston)

Abasov, A.S. - f.f.d., professor (Azarbayjon)

Buzarimejad, Y. - PhD, dotsent, Teatron universiteti Alborz fakulteti dekani,

B.K. Santosh Kukreja - DS professor (Hindiston)

Bilalov, M.I. - f.f.d., professor (Rossiya)

Gabirov, T.X. - f.f.d., professor (Qozog'iston)

Kerimov E. - f.f.d., professor (Azarbayjon)

Gezalov, A.A. - f.f.n., professor (Rossiya)

Olatunji Feliks - PhD, dotsent (Nigeriya)

Tulenova G.J. - f.f.d., professor (O'zbekiston)

Tesdelen, Vefa. - f.f.d., professor (Turkiya)

Kurmangalieva, G.K. - f.f.d., professor (Qozog'iston)

Xudoydodzoda F.B. - f.f.d., professor (Tojikiston)

Hakimov N. H. - f.f.d., professor (O'zbekiston)

Xudoyberganov R. - DSc, dotsent (O'zbekiston)

Mahmadizoda N. - f.f.d., professor (Tojikiston)

Naushabaeva, A. Hakimoglu - PhD filos., professor (Turkiya)

Paxruddinov, Sh.I. - s.f.d., professor (O'zbekiston)

Sergeev, M.Y. - professor (AQSH)

Sagikizi A. - f.f.d., professor

To'rayev, B.O. - f.f.d., professor (O'zbekiston)

Urmanbetova, J.K. - f.f.d., professor (Qirg'iziston)

Chjan Baychun - f.f.d., professor (Xitoy)

Shadmonov, Q. - f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sharipova E.K. - f.f.d., professor (Qirg'iziston)

Yaxshilikov, J. - f.f.d., professor (O'zbekiston)

Yaskevich, Y.S. - f.f.d., professor (Belorusiya)

Qurbonova L.A. - DSc, dotsent (O'zbekiston)

Ilmiy kotib:

Xidirov, M.T. - PhD (O'zbekiston)

Musahhirlar:

Qodirov J. (O'zbekiston)

Tyukmaeva A.M. (O'zbekiston)

Po'latov A. (O'zbekiston)

Mahlova Z. (O'zbekiston)

"Falsafa va hayot" xalqaro jurnal
"Философия и жизнь" международный журнал
"Philosophy and Life" international journal

Редакционный совет:

Абдильдина, Р. Ж. - академик НАН
 Казахстана, д.ф.н., профессор
Мамедзаде, И. Р. - д.ф.н., профессор, директор
 института "Философии и социологии" АН
 Азербайджана
Скарантино, Л. М. - президент всемирной
 федерации философских обществ д.ф.н.,
 профессор (Италия)
Смирнов, А. В. - академик АН России,
 директор института Философии АН России,
 президент РФО, д.ф.н., профессор (Россия)
Сейтахмедова Н.Л. - член академик АН
 Казахстана, д.ф.н., профессор
Турсунов, А. - академик АН Таджикистана,
 д.ф.н., профессор
Цуй Вэйхан - Вице-президент Института
 философии КАОН, д.ф.н., профессор (Китай)
Чуваков, А. Н. - проф. РАН, д.ф.н., (Россия)

Учредители:

Национальный университет Узбекистана
 имени Мирзо Улутбека
 Международный научно-исследовательский
 Центр Имам Бухари при Кабинете Министров
 Республики Узбекистан
 Философское общество Узбекистана
 ООО «Expert lawyers» Elc.uz

Регистрационное свидетельство №1175
 выдано 27.02.2018 агентством по печати и
 информации Узбекистана

Главный редактор:

Шермухамедова, Н.А. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель редактора:

Асланова Р. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Ответственный редактор: Мухамедова, З.М. - д.ф.н.,
 профессор (Узбекистан)

Редакционная коллегия:

Аллахярлова, Т. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Андрюжанова, Г.А. - д.п.н., профессор (Казахстан)

Абасов, А. - д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бузаринжад, Я. - PhD, доцент (Иран)

В.К.Сантош Кукреджа - PhD, профессор (Индия)

Билалов, М.И. - д.ф.н., профессор (Россия)

Габитов, Т.Х. - д.ф.н., профессор (Казахстан)

Керимов Э. - д.ф.н., проф. (Азербайджан)

Гезалов, А.А. - к.ф.н., профессор (Россия)

Олатунджи Ф. - PhD доцент (Нигерия)

Туленова Г.Ж. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Темделен В. - д.ф.н., профессор (Турция)

Курмангалиева, Г.К. - д.ф.н., профессор

(Казахстан) Керимова

Худойдурода Ф.Б. - DSc, профессор (Таджикистан)

Хакимов Н.Х. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Худойбергенов Р.Х. - DSc, доцент (Узбекистан)

Махмадзода Н. - DSc, профессор (Таджикистан)

Пахруллоев, Ш.И. - д.п.н., профессор (Узбекистан)

Сергеев, М.Ю. - PhD, профессор (США)

Сагикли А. - д.ф.н., профессор (Казахстан)

Тураев, Б.О. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Урманбетова, Ж.К. - д.ф.н., профессор (Киргизия)

Чжан Байчун - д.ф.н., профессор (Китай)

Шадрманов, К. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шарипова Э.К. - д.ф.н., профессор (Киргизия)

Яхшилыков, Ж. - д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Яскевич, Я.С. - д.ф.н., профессор (Беларуссия)

Ученый секретарь:

Хидиров, М.Т. - доктор философии (Узбекистан)

Корректоры:

Кодиров Ж. - (Узбекистан)

Тюкмаева А.М. - (Узбекистан)

Пулатов А. - (Узбекистан)

Маликова З. - (Узбекистан)

"Falsafa va hayot" xalqaro jurnal
"Философия и жизнь" международный журнал
"Philosophy and Life" international journal

Editorial Council:

Abdikina, R.J. - academician AS of Kazakhstan, doctor of philosophical sciences, professor

Manedzade, I.R. - director of Institute "Philosophy and sociology" AS of Azerbaijan, doctor of philosophical sciences, professor

Scarantino, L.M. - President of International Federation of Philosophical societies, professor of philosophy and politics of culture, (Italy)

Smirnov, A.V. - Academician of the Academy of Sciences of Russia, Director of the Institute of Philosophy of the Academy of Sciences of Russia, President RFS, doctor of philosophical sciences, professor (Rossiya)

Seytahnmetova N.L. - Correspondent member of the Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan, Doctor of philosophical sciences, professor

Tsui Weihai - vice-President of the Institute of Philosophy CAAS, doctor of philosophical Sciences, professor (China)

Chumakov, A.N. - professor RAN doctor of philosophical sciences (Russia)

Founders:

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

LLC "Expert lawyers" Etc.uz

The registration certificate № 1175 was issued on February 27, 2018 by the Uzbek Agency for Press and Information

Editor-in-Chief

Shermukhamedova, N.A. - doctor of philosophical sciences, professor (Uzbekistan)

Deputy Editor: Aslanova R. doctor of philosophical sciences, professor (Azerbaijan)

Managing editor:

Mukhamedova, ZM. - doctor of philosophical sciences, professor (Uzbekistan)

Editorial team:

Allahyarova, T. - doctor of philos. sciences, professor (Azerbaijan)

Andirjanova, G.A. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Abasov, A.S. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Azerbaijan)

Bouzarinejad Y. - PhD, associate professor (Iran)

B.K., Santosh Kukredja - PhD, professor (India)

Bilalov, M.I. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Rossiya)

Gabitov, T.H. - doctor of philos. sciences, professor (Kazakhstan)

Kerimov E. - doctor of philosophical sciences, professor (Azerbaijan)

Gezalov, A.A. - Doctor of Philosophical Sciences, Associate Professor (Russia)

Olatunji F. - PhD, Associate Professor (Nigeria)

Tulenova G. J. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

Vefa Tesdelen - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Turkey)

Kurmangaliyeva, G.K. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Khudoydodzoda F.B. - DSc, professor (Tajikistan)

Hakimov N.H. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

Khudoyberganov R. - DSc, Associate Professor (Uzbekistan)

Mahmadizoda N. - DSc, Associate Professor (Tajikistan)

Pakhriddinov, Sh.I. - doctor of political sciences, professor (Uzbekistan)

Sergeev, M.Yu. - PhD philos., professor (USA)

Sagikizi A. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Turaev, B.O. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

Urmanbetova, J.K. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Kyrgyzstan)

Zhang Baichun - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (China)

Shadmanov, Q. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

Sharipova E.K. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

Yaxshilikov, J. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

Yaskevich, Y.S. - Doctor of Philosophical Sciences, Professor, professor (Belarus)

Scientific Secretary:

Khidirov, M.T. (Uzbekistan)

Correctors:

Kodirov J. (Uzbekistan)

Tyukmaeva A.M. (Uzbekistan)

Pulatov A. (Uzbekistan)

Malikova Z. (Uzbekistan)

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Mardonov Bahodir Mardon o'g'li

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida yoshlar siyosati samaradorligini baholash mezonlari9-16

Mo'minov Jasurbek Mamirjonovich

Davlat suvereniteti va xavfsizligini ta'minlashda siyosiy kommunikatsiya texnologiyalari17-27

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Shermuxamedova Nigina Arslanovna

Yangi tafakkur uslubi shakllanishida falsafani o'qitish metodikasini takomillashtirishning ahamiyati28-41

Xidirov Mustafo Toyirqulovich

Faoliyat falsafasiga oid qarashlar evolyutsiyasi42-47

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

Ong tabiatiga oid materialistik-reduktiv yondashuv ong/miya ayniyligi nazariyasi48-58

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Abdullaev Jasur Abduvait o'g'li

Aziziddin Nasafiyning inson tabiati va mohiyati haqida falsafiy-antropologik qarashlari59-72

Navro'zova Gulchehra Ne'matovna

Naqshbandiya va Hakimiya qiyosiy tahlil73-88

Mamadjonova Marvarid Qurbonazarovna

Husayn Voiz Koshifiy axloqiy ta'limotining falsafiy asoslari89-95

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Karimova Dilfuza Abduqayumovna

Yoshlar madaniy qiyofasini yuksaltirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash istiqbollari96-103

Karimova Sadoqat Tahirovna

Jamiyatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning ijtimoiy – madaniy omillari104-110

Shadimetova Gulchehra Mamurovna

O'zbek xalqi milliy bayramlarning estetik asoslari111-119

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich

Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning dolzarb masalalari120-126

Qarshiyev Shoxrux Anvar o'g'li

Diniy qadriyatlarni shakllantirish axloqiy qadriyatlarning poydevori sifatida127-131

Saydullayev Ulug'bek Ubaydullayevich

Qadriyat hodisasining tabiati, mazmun-mohiyati va jamiyat hayotidagi o'rni132-139



Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)

E-mail: toshmetovtuxtasin@gmail.com

(Chirchiq, O'zbekiston)

YOSHLARNI MA'NAVIY TARBIYALASHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Ma'lumki, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, jamiyatlar muayyan qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Zero, bu dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'larining kengayib borayotgani yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish masalasi dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Ushbu jihatlar bevosita yoshlarda mafkuraviy immunitetning rivojini ta'minlashga xizmat qiladiki, milliy yuksalish sari qadam tashlayotgan O'zbekiston sharoitida ushbu omil muhimdir.

Kalit so'zlari: Ma'naviyat, mafkura, ma'rifat, qadriyat, tarbiya, axloq, g'oya, immunitet, gumanizm, ta'lim, texnologiya, targ'ibot, tashviqot, strategiya, global, axborot, internet, tahdid, xuruj, buzg'unchi g'oya, bunyodkor g'oya, ekstremizm, dogmatizm, irqchilik, kosmopolitizm, "ommaviy madaniyat".

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. известно, что система ценностей определяет возможности идеологического иммунитета и служит прочным щитом на пути вредных идей. Таким образом, общества основаны на определенной системе ценностей. Ведь негативные последствия глобализационных процессов, происходящих в этом мире, расширение масштабов новых идеологических опасностей и угроз свидетельствуют о том, что актуален вопрос укрепления идеологического иммунитета в формировании духовности молодежи. Эти аспекты непосредственно служат обеспечению развития идеологического иммунитета у молодежи, что важно в условиях Узбекистана, который делает шаги к национальному подъему.

Ключевые слова: духовность, идеология, просвещение, ценность, воспитание, этика, идея, иммунитет, гуманизм, образование, технологии, пропаганда, стратегия, глобальный, информация, интернет, угроза, нападение, деструктивная идея, созидательная идея, экстремизм, догматизм, расизм, космополитизм, “массовая культура”.

TOPICAL ISSUES OF STRENGTHENING IDEOLOGICAL IMMUNITY IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

Annotation. it is known that the value system determines the possibilities of ideological immunity and serves as a strong shield against harmful ideas. Thus, societies are based on a certain system of values. After all, the negative consequences of the globalization processes taking place in this world, the expansion of the scale of new ideological dangers and threats indicate that the issue of strengthening ideological immunity in the formation of youth spirituality is relevant. These aspects directly serve to ensure the development of ideological immunity among young people, which is important in the conditions of Uzbekistan, which is taking steps towards national ascent.

Keywords: spirituality, ideology, enlightenment, value, upbringing, ethics, idea, immunity, humanism, education, technology, propaganda, propaganda, strategy, global, information, Internet, threat, attack, destructive idea, creative idea, extremism, dogmatism, racism, cosmopolitanism, “mass culture”.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon siyosatida mafkuraviy kurash tobora avj olib borayotgan bir davrda yoshlarda g'oyaviy immunitetni yanada shakllantirish dolzarb masala sifatida kun tartibidan o'rin olmoqda. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida mustamlakachilik siyosati tugatilganligi to'g'risida fikrlar bildirilmoqda, to'g'ri qurol-yarog' bilan tahdid qilish, o'zga davlat hududiga ochiqchasiga bosqinchilik uyushtirish to'xtatilgan bo'lsada, aksincha g'oyaviy, mafkuraviy tahdid kundan-kun kuchayib avj olib bormoqda. Bu tahdidlardan himoya esa qurol-yarog', zamonaviy texnika emas, aksincha g'oyaviy, mafkuraviy tafakkurdir. Bu yo'lda yosh avlodni ma'naviyatli insonlar bo'lib shakllanishida barchamiz birdek mas'ul bo'lishimiz kerak.

MATERIALLAR VA METODLAR

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo'lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu esa o'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo'l qo'ygan kamchiliklarimiz, to'planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qilish, bugun

hayotning o'zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni taqozo etmoqda" [1]. Darhaqiqat, hozirgi murakkab sharoitda qayerdadir qirg'inbarot to'qnashuvlar, fuqarolik urushlari davom etayotgan bo'lsa, qayerdadir hamjihatlik va tinchlik yo'li bilan rivojlanish davom etayotganini ko'rish mumkin. Demak, har qanday mamlakatning taqdiri ko'p jihatdan mavjud holat, jumladan, mafkuraviy targ'ibotning qanchalik yo'lga qo'yilganligi, ushbu jarayonlarni jamiyat a'zolari tomonidan qanchalik to'g'ri anglab yetilganiga va uni hal qilishning optimal yo'llarini o'rinli belgilab olinganiga bog'liq. Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, jamiyatda yagona umummilliy maqsadga yo'naltiruvchi g'oyaning ta'siri sust bo'lsa, bunday holatda mamlakat boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lga odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otishda, o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan ma'naviyatni tayanch va suyanch deb bilishi lozimligini bugungi davrning mohiyatidan ham anglash mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ma'naviy ong va dunyoqarashdagi o'zgarishlarni ta'kidlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday deydi: "Biz bugun erkin fikrlaydigan, ongli yashaydigan, siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasi tobora o'sib borayotgan, o'z kelajagini, kim uchun va nima uchun mehnat qilayotganini o'ziga aniq tasavvur etayotgan xalqimiz" [2]. Haqiqatan, yoshlar tuzilishi jihatidan ham, dunyoqarashi, ong va tafakkuri, maqsad va mayllari, milliy ma'naviy qadriyatlarga munosabati ham turli xil. Yoshlar orasida milliy ma'naviy qadriyatlarimizni chuqur anglagan, uni jamiyat taraqqiyotidagi ta'sirini ongli idrok etadiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayni paytda yoshlar orasida milliy-ma'naviy qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan begona g'oya va tushunchalar ta'siriga tushib qolayotganlarning ham uchrab turganligi alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bu globallashtirish sharoitida, axborot makonida o'zgarishlar, axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy saytlar orqali tarqatilayotgani milliy ma'naviy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan g'oya va qarashlar ayrim yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bu ayniqsa, mustaqil fikrga ega bo'lmagan, dunyoqarashda buzg'unchi g'oya bilan bunyodkor g'oyaning farqiga hali to'liq bormaydigan nisbatan taqlidchan yoshlar toifasida uchrayotganligini ta'kidlash lozim. Milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, madaniy merosni hurmat qilish bilan bir qatorda, ulardan kundalik hayotda foydalanish mas'uliyati yoshlarda zararli g'oya va tushunchalarga nisbatan g'oyaviy kurashchanlikni oshiradi, mafkuraviy, ma'naviy immuninitetni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu boisdan, yoshlarda mafkuraviy immuninitetni shakllantirish uchun vatanparvarlikni, erkin tafakkur tarzini, did va yuksak axloqiylikni tarbiyalash zarur. Bu haqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildiradi: "Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi

bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabidir” [Mirziyoyev Sh.M. 2021], – deydi. Darhaqiqat, yosh avlod ongiga vatanparvarlik kabi universal tamoyillar, mezonlar hisoblanadigan gumanizm (insonparvarlik), xalqchilik va taraqqiyparvarlik g‘oyalarini zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib singdirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, yoshlarimizda tutli xil buzg‘unchi va vayronkor tahdidlarga qarshi kurashishda ularning mafkuraviy immunitetini yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Binobarin, bu jarayon jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma‘rifiy, ta‘lim-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi. “Immunitet” so‘zining ma‘nosi (lot. *Immunitas* – ozod bo‘lish, qutulish) tibbiy tushuncha bo‘lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli ta‘sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmui tushuniladi” [4]. Immunitet inson organizmining turli kasalliklaridan himoya qila olish qobiliyatidir. Shu boisdan, bugungi kun yoshlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ikkinchidan, u har bir yosh avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta‘minlash mumkin.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra, mafkuraviy immunitet tushunchasiga o‘zimizning mualliflik ta‘rifimizni taklif qildik unga ko‘ra, mafkuraviy immunitet – begona, zid, beqarorlashtiruvchi g‘oya, qarash va mafkuralarning ongu qalbimizga o‘rnashib, barqaror mohiyat kasb etishishiga qarshi tura oladigan, ularning inson tafakkuriga ta‘sirini minimallashtira oladigan yoki ulami ta‘sirsiz darajada “qurolsizlantiradigan” ma‘naviy-aqliy qobiliyatdir.

Shu ma‘noda, biologik immunitet insonda tabiiy ravishda mavjud bo‘lib, bunda jismoniy omillar yetakchi o‘rin egallasa, mafkuraviy immunitet insonda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasdan ma‘naviy omillar hosilasi bilan chambarchas bog‘liq. Buning uchun kuchli iroda, mustaqil ma‘naviy dunyoqarashga ega bo‘lishdan tashqari mazkur qobiliyatni o‘zlashtirishga nisbatan insonning o‘zidan ham xohish va intilish talab qilinadi.

Mafkuraviy immunitet tizim sifatida o‘zida quyidagi komponentlarni birlashtiradi: *birinchi komponent bilimdir*. Ammo shu o‘rinda aniqlik talab etiladi. Masalan, vayronkor g‘oya tarafdorlari ham ma‘lum “bilimlar tizimi”ga tayanadilar. Bu, bir tomondan, g‘oyaviy immunitet tizimidagi bilimlar xolis bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri aks ettirishi, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra, Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i lozim.

Mafkuraviy immunitet tizimining *ikkinchi komponenti qadriyatlar tizimidir*. Zero, bilimlar qanchalik xolis va asosli bo‘lsa, uning zahirida yuzaga kelgan ma‘naviy qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Shunday ekan, tizim ichidagi qismlar o‘zaro uzviy va bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini

belgilab beradi va mafkuraviy tahdidlar qarshisida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu haqda quyidagi fikrlarni bildiradi: "Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur" [Mirziyoyev Sh.M. 2021] deb ogohlantiradi. Haqiqatan ham, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, jamiyatlar muayyan qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Qadriyatlarning jamiyat hayotida, uning o'zgarib, rivojlanib borishida hamda turli xalqlar o'rtasidagi vorislikni saqlash va davom ettirishdek muhim ahamiyatga ega. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimining o'zgarishi va yangilanishi bilan jamiyat ham o'zgarib, yangilanib boradi. Uning o'zgarishiga turli-xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu vaqt va zamon o'zgarishlari, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy hayot sohalar, siyosiy madaniy hayot o'zgarishlari bilan bog'liq. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimi ongu tafakkur o'zgarishlari orqali o'zining ijtimoiy hayot sohalariga ta'sirini saqlab qoladi, yoki aksincha, o'zgarishga, yangilanishga ehtiyoj sezadi. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimining yangilanishi va o'zgarib, takomillashib borishida yoshlar muhim o'rinni egallaydi. Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimi xilma-xil. Milliy ma'naviy qadriyatlar uning muhim tuzilmaviy tarkibiy qismlari, ularning yoshlar ijtimoiy-madaniy hayotidagi in'ikosi ular hayotining mohiyatini ifodalashga xizmat qiladi. Ya'ni, yoshlarning vatan va xalq manfaatlari yo'lidagi faoliyatining nechog'lik ekanligi ularning kundalik faoliyatida milliy qadriyatlar tizimi qanchalik o'rin olganligi bilan bog'liq. Demak, yoshlar ana shu milliy ma'naviy qadriyatlar tizimini tashkil etuvchi tushuncha va g'oyalar bilan yashaydi, o'z faoliyatlarida qadriyatlar qirralarini mujassam etib bormoqlari lozim. Yoshlar jamiyatda turli davrlarda shakllangan va amal qilingan, milliy ma'naviy qadriyatga aylangan tushuncha va g'oyalarni shunchaki qabul qilmasligi, uni davr va zamon, ong va tafakkurdagi o'zgarishlar talablaridan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lishlari, qadriyatga aylangan tushuncha va g'oyalarga yangicha ma'no va mazmun baxsh etishlari, uni yanada boyitish, yangilanib borishiga o'zlarining hissalarini qo'shib borishlari lozim. Shu ma'noda, yoshlar milliy ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi, asrab-avaylovchi va uni yanada boyitgan holda kelgusi avlodlarga yetkazuvchi muhim subyektlardir. Shu o'rinda, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "Biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarini qadriyat deb bilamiz" [Karimov I.A. 2008]. Shu nuqtayi nazardan, jamiyat taraqqiyotida yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarga nisbatan oqilona munosabatlarni shakllantirish, tarbiyalash strategik ahamiyat kasb etadi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar turli xalqlar, millatlar milliy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Yoshlarning milliy-ma'naviy

qadriyatlarni asrab-avaylash himoya qilish hamda rivojlantirib, boyitib borish mas'uliyati va madaniyatini, yuksalib borishi mustaqil taraqqiyotni kafolatlaydi.

Shunday ekan, global o'zgarishlar davrida biz yangi O'zbekistonni yuksak ma'naviyatli jamiyatga aylantirishimiz lozim. Zero, bu dunyoda kechayotgan globalashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'lamining kengayib borayotgani yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish masalasi dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda quyidagilarga alohida ahamiyat berish talab etilmoqda:

Birinchidan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish yo'lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e'tibor qaratish;

Ikkinchidan, mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbad qilishga yo'naltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda sinovdan o'tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

Uchinchidan, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, aqidaparastlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, vandalizm, genotsid, "demokratiya eksporti", diniy ekstremizm, dogmatizm, irqchilik, kosmopolitizm, ksenofobiya, ludomaniya, mahalliychilik, millatchilik, missionerlik, natsizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", terrorizm, fashizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

To'rtinchidan, dunyoviylik va diniylikning sog'lom muvozanatini ta'minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

Beshinchidan, inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim va tarbiyani milliy ma'naviy qadriyatlarni yanada yuksaltirish orqali yoshlarda ta'lim olishga bo'lgan intilishni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, yoshlarda hayot strategiyasini shakllantirish masalasi murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Binobarin, "Yoshlar hayot strategiyasi deganda, bu ularning orzu-intilishlari, maqsad va qiziqishlarini amalga oshirish uchun oldindan hayotini rejalashtirish, maqsad va muddaolariga erishish yo'lida qat'iy kurashish usul va yo'llarini tanlash va ishlab chiqish, shuningdek tuzilgan reja asosida harakatlar ketma-ketligining amalga oshirilishi tushuniladi. Bu borada sotsiologlar, psixologlar, iqtisodchilar 1-5, 10 yillik rejalar tuzish va bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatishgan" [Осипова, Л.Б. 2016]. Negaki, yoshlar o'ziga xos ijtimoiy-demografik guruh sifatida, hayotiy rejalarini, orzu va intilishlarini, maqsad va qiziqishlarini tez-tez o'zgartirib turishga moyil, maqsadlarga erishish yo'lidagi harakatlarining beqarorligi bilan ajralib turuvchi strategiya hamdir.

XULOSA

Demak, bugungi globalashuv davrida yoshlarimizni turli xil mafkuraviy tahdidlar ta'sirida milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga chuqurroq e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaatini yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat bera olmaymiz. Ularda eng avvalo, Vatanga muhabbat, kuchli e'tiqod, urf-odat va qadriyatlarimizga sadoqat shakllanmas ekan, axborot xurujlarining ta'siriga tushib qolaveradilar. Buning uchun har qanday buzg'unchi axborotlarga qarshi kuchli immunitetni shakllantirish talab etiladi.

Umuman, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, tadqiqotning mazkur fasli bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- fikrga qarshi fikr bilan javob berish uchun har bir yosh o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi kerak;
- yoshlar g'oya bilan g'oyaning farqiga borishi kerak: ma'naviyat hamda milliy g'oyaga nisbatan ishonch va e'tiqodi esa mustahkam bo'lishi bugungi kunning talabi darajasida doimiy e'tiborda bo'lishi lozim;
- bugungi yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun yoshlarning ma'rifati va ma'naviyati yuksak, vatanparvarlik tuyg'usi shakllangan, milliy qadriyatlarga nisbatan hurmati barqaror bo'lishi lozim.

Ushbu jihatlar bevosita yoshlarda mafkuraviy immunitetning rivojini ta'minlashga xizmat qiladiki, milliy yuksalish sari qadam tashlayotgan O'zbekiston sharoitida ushbu omil muhimdir.

BIBLIOGRAFIYA

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi. 31-avgust 2013-yil. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 275.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'ofur G'ulom, 2010. –B. 292.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 296.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 82.
7. Осипова, Л.Б. Жизненные стратегии молодежи: опыт социологического исследования / Л.Б. Осипова, Л.А. Энвери // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2016. – № 4. – С. 108-129. DOI: 10.15838/ecs/2016.4.46.6.